

SHAN YAN ISLOHOTLARINING CHET EL ADABIYOTLARIDA YORITILISHI

M.Xubbaliyeva – ToshDShI “Xalqaro mamlakatlar tarixi” yo’nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Shan Yan islohatlari va ularning chet el adabiyotlarida yoritilishi haqida soʻz boradi. Maqolada bir qator olimlarning adabiyotlarida islohatlarni yoritilishi haqida ham ma’lumot berilgan.

Ma’lumki, har bir davlat tarixida shu davlatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy gullab yashnashiga hissa qoʻshgan koʻplab shaxslar yashab oʻtgan. Ular oʻz davlatining rivojlanishi yoʻlida juda koʻp islohotlarni amalga oshirganlar. Bu oʻz navbatida ular joriy qilgan islohotlar tarixini asl manbalar asosida, haqqoniy tarzda oʻrganish vazifalarini keltirib chiqaradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda”[1:8]. Barcha davlatlar qatori Xitoy tarixida ham siyosiy arboblarning amalga oshirgan islohotlarini davlat yuksalishida muhim oʻrin tutganligiga guvoh boʻlamiz. Shan Yan Qadimgi Xitoyning yuksalishida va davlatni qonun bilan boshqarish tizimini shakllantirishda juda muhim oʻrin egallagan va mamlakat hayotida oʻzining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohatlari bilan chuqur iz qoldirgan shaxslardan biridir.

Sin hukmdori Syao Gun (mil.avv. 388-361-yillar) Shan Yan ta’limoti bilan qiziqib, unga davlat islohotlarini oʻtkazishni ishonib topshirdi. Shan Yan xoʻjalik va mamlakatni boshqarish sohasida islohotlar loyihasini ishlab chiqadi. Islohotga koʻra, yerni istagancha xususiy mulk qilib olish mumkin. Yerni erkin sotish va sotib olishga ruxsat beriladi. Ilgari hosildan olinadigan soliq yer soligʻi bilan almashtiriladi. Davlatni ma’muriy boshqarishda ham qator ishlar qilinib, mamlakat 36 viloyatga boʻlinib, uni podsho tayin etgan yangi amaldorlar idora qila boshlaydilar. Eski amaldorlar ishlaridan chetlashtiriladi va mamlakatda kuchli nazorat oʻrnatiladi. Hukumat maktab va maorif ishlariga katta eʼtibor berib, bu sohada ham islohotlar oʻtkaziladi. Mamlakat qoʻshinlari qayta tuzilib mustahkamlanadi. Islohot natijalari podsho hokimiyatini mustahkamlanishiga sabab boʻladi.

Xitoy tarixida Shan Yan islohotlarining ta'sir doirasi juda keng bo'lib, vafotidan so'ng butun mamlakat bo'ylab uning g'oyalari asosida davlat boshqaruvi harakatlari yo'lga qo'yildi. Uning islohotlarini tadqiq qilishda olimlar ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu izlanishlar Shan Yan-ning "Shan Juan shu" (Hokimiyatni boshqarish to'g'risidagi qonunlar majmui) kitobi asosida amalga oshirilgan. Dastlab bu kitob "Je Gulyan"ning solnomalarida berilgan. Keyinchalik esa Suy tarixida 6 qonunlar kitobining hokimiyatni boshqarish bobida keltirilgan. Biroq, kitob to'liq holatda bizgacha yetib kelmagan. XIX asrning boshlarigacha kitobning faqatgina 3 ta bobi yetib kelgan. Bundan tashqari, XIX asrgacha ushbu kitobning turli xil nashrlari mavjud bo'lib, ular Yan Vanli, Sun Sian, Sun Ijan, Sun Fenlar tomonidan o'rganilgan[2:35]. XX asrda Xitoy olimlari Van Shijun, Jun Jaojular "Shan Juan Shu" kitobini maxsus tadqiq qildilar[3:29]. Xitoyda Go Mojo, Dun Chyu, Rossiyada Delyusin, L.S.Perelomov kabi tarixchilar tomonidan Shan Yan islohotlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va tarixiy ahamiyati to'g'risida ilmiy monografiya va maqolalar yozildi. Ular tadqiqotlarida nafaqat manba matni, balki davr nuqtai nazardan voqeilik bilan bog'liq kechgan tarixiy jarayonlarning bog'liqlik tomonlarini ochib berishga harakat qilganlar. 1956 yil Pekinda Ju Shiye nashriyoti tomonidan "Shan Juan Shu" kitobi zamonaviy Xitoy tilida ilk marotaba izohlar bilan nashr etilgan. Shuningdek, Sima Szyanning "Tarixiy xotiralar" asarida Shan Yan islohotlari to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Shan islohotlari nafaqat chet el olimlari asarlarida balki o'zbek olimlari ilmiy maqolalarida ham batafsil yoritib berilgan. Ushbu asarlar bizga Shan Yanning mamlakatda amalga oshirgan islohotlari to'g'risida to'liq ma'lumot olishimizga ko'mak beradi. Jumladan, o'zbek olimlaridan M.Mahmudxo'jayevning "Xitoy tarixi" nomli o'quv qo'llanmasi, A.Aytboyevning "Chinmo chin" haqidagi monografiyasi va Sh.I.Shozamonovning ilmiy izlanishlarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Yuqorida qayd etilgan ilmiy manbalar ma'lumot o'rnida nazariy bilimlarni mustahkamlashda amaliy mazmun kasb etadi.

Rus xitoyshunoslari L.S.Vasilyev, R.V.Vyatkina, V.S.Taskina, V.S.Spirin, A.M.Karapedyans, M.V.Kryukovlar Shan Yan islohotlarini o'rganishda juda keng miqyosda tadqiqot ishlarini olib borganligi kuzatiladi. "Shan Juan Shu" asari asosan ikki xorijiy tilga tarjima qilingan. 1928 yili Y.Dayvenko tomonidan ingliz tiliga, 1962-yil L.S.Perelomov tomonidan rus tiliga izohlar bilan tarjima qilindi. L.S.Perelomovning qalamiga mansub tarjimasi 1992-yili qayta nashrdan chiqarildi. Ularning tarjimalarida Shan Yan islohotlari to'liq bayon qilingan. L.S.Perelomov o'z asarlarida Shan Yan tomonidan aytilgan fikrlariga ko'proq to'xtalib o'tadi. Muallif tarjima jarayonida o'sha davrning yuksak g'oyalari Konfutsiychilik va Legizm o'rtasidagi farqlar, Xitoy an'anasiga mansub bo'lgan urf-odatlar to'g'risida alohida to'xtalib o'tadi. Yana bir rus olimi K.V.Vasilyev sharqiy Chjou davriga oid bo'lgan

ma'lumotlarni tahlil qila turib, "Shan Juan Shu" kitobidagi davlat nomlari bilan bog'liq atamalariga izohlar keltiradi[4:3]. Rus tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan bu ijodiy ishlar asosan XX asrning 20-80 yillariga taalluqli bo'lib, bugungi davr nuqtai-nazaridan Shan Yan ijodiga yangicha yondoshuvlarni taqazo etmoqda. Vaholanki, Xitoyning bugungi iqtisodiy-siyosiy islohotlari zahirida Shan Yan g'oyalarining hozir ham amaliy ahamiyatini yo'qotmaganligi masalasi o'z isbotini topmoqda. G'arb tadqiqotchilari, masalan: Mark Edvard Lyusning "Qadimgi Xitoydagi kodekslar majmui", Anre Levining "Xitoy adabiyoti va qadimgi tarixi", Pero Korradining "Xitoy, aholi va besh ming yillik jamiyat tarixi" kabi monografiyalari Shan Yan islohotlarini o'rganishga bag'ishlangan. G'arb islohotchilarining bu sohadagi qiziqishlari Xitoy sivilizatsiyasining qadimda iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarining rivoji bilan bog'liq bo'lgan qimmatli ma'lumotlar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Ularning tadqiqotlarida Shan Yan islohotlariga baho berishda, uning yashagan davri va muhitga nisbatan g'arb nuqtai nazaridan berilgan yondoshuvlarni uchratishimiz mumkin.

Shan Yanning g'oyaviy siyosiy qarashlari mutaffakkir izdoshlarining asarlarida qonunlar majmuasi sifatida yaxlit to'plam shakliga keldi. Shu tariqa Shan Yanning qalamiga mansub "Shan Ji Fa" (Shan Yan qonunlari) nomli risola dunyo yuzini ko'rdi va mamlakatda ommalashdi. Bu to'g'risida legizm ta'limotining yirik namoyondalaridan bo'lgan Xan Fey mutaffakkir haqida shunday satrlarni keltiradi: mamlakatimiz fuqarolarining har birida Shan Yanning qonunlar haqidagi kitobi mavjud[2:46]. Sin imperiyasidan keyingi sulolalar davrida Xitoyda u yaratgan qonunlar yanada takomillashib, bir tizim shakliga keltirildi. Bu esa Shan Yan islohotlarining o'zining davomiyligi bilan alohida ajralib turganligidan dalolat beradi. Undan Xan imperiyasi davrida ko'pgina olimlar foydalanganlar. Masalan; imperator U Di o'zining yer kodeksi masalasida Shan Yanning qonunlar majmuasidan nusxa ko'chirtirgan. Xitoyning barcha sulolalari Shan Yanning qonunlar kitobidan keng ko'lamda foydalanib kelganlar. Eramizning IV asrida Xitoyda "Jan Tian" yer tizimiga va qishloq xo'jaligiga oid kitob yoziladi[5:68]. Ushbu kitobda ham bizning davrimizgacha Shan Yan olib borgan islohotlari va Xitoyda yer tizimini taqsimlash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shan Yan tamoyillariga ko'ra, davlat tizimini shakllantirish uning siyosiy va iqtisodiy salohiyatini oshirishda agrar munosabatlarning roli o'zining keskinligi bilan ajralib turgan. Xitoy islohotchilarining barchasi mazkur islohotlarining ayrim elementlaridan foydalanganlar. Shu sababdan ham Xitoy tarixidagi olib borgan islohotchilik harakatida Shan Yanning o'rni beqiyosdir. Ana shu ma'noda uning ijodining dolzarbligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, balki, unga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi.

Shan Yan o'z davrining tajribali davlat arbobi, yetuk nazariyotchisi hisoblanib, qadimgi Xitoyning Sin imperiyasi davrida mamlakatning har bir jabhasida o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlari bilan tanildi. Shan Yan islohotlari barcha tarixiy davrlarda o'zining amaliy va nazariy jihatlari

bilan ajralib turganligi yaqqol o'z aksini topdi. Uning Xitoy tarixidagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va mavkuraviy jarayonlarning keng qamrovli tushunchalariga ega ekanligidan dalolat beradi. Uning islohotlari o'z davrida bunyod etilgan va markazlashgan davlatning yagona milliy siyosat olib borilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, amalda Xitoy davlatchiligidagi boshqaruv tizimlarining shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qildi. U o'zida milliy an'analarga xos bo'lgan davrning shiddatli qarama-qarshiliklariga qaramasdan, ahloqiy mezonlarni va qonun ustuvorligini to'liq ta'minlay olganligini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Shan Yan o'z davrining yetuk mutaffakkiri va davlat arbobi sifatida Xitoy tarixidan o'chmas iz qoldirgan.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998.
2. Целуйко М.С. Политическая история царства Цинь (VIII-III вв. до н.э.): основные периоды и их характеристика. – История Китая. Материалы китаеведческой конференции ИСАА при МГУ (май 2004 г.), – М., 2005.
3. Васильев Л.С. Древний Китай. Т.3., –М., 1995.
4. Васильев К.В. Древнекитайская историография и ее методы. – Л., 1965.
5. Смолин Г.Я. Источниковедения древней истории Китая. – М., 1987.